

---

## MEHNATGA LAYOQATSIZ OTA-ONANI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLAGAN SHAXS 15 SUTKAGA MA'MURIY QAMOQQA OLINADI



### **Mehnatga layoqatsiz ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlagan shaxs 15 sutkaga ma'muriy qamoqqa olinadi**

Voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik 15 sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki ma'muriy qamoq qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga BHMning 20 baravari (6 mln so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish jarayonida aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to'lagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

**MIB So'x tumani bo'limi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-18 16:52:43